
Rasmiy munosabat

Ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahridagi Ahmad Farg'oniy nomidagi istirohat bog'iga kirish yo'laklari beton bilan to'silganligi yuzasidan murojaat tarqaldi.

Ahmad Farg'oniy nomidagi istirohat bog'ida 25 dekabr sanasidan boshlab Yangi yil tadbirlari o'tkazilmoqda. Har kunlik tadbirlarda ko'p sonli aholi vakillari, ta'lim muassasalari o'quvchilari ishtirok etishmoqda.

Fuqarolar xavfsizligini ta'minlash maqsadida istirohat bog'iga avtomobillar kirishi uchun mo'ljallangan yo'laklarga ko'chma beton to'siqlar qo'yilgan. Favqulodda vaziyatlar ro'y bergan holatlarda foydalanish uchun maxsus kirish yo'llari borligini hamda to'siqlar bayram qatnashchilari va piyodalar uchun noqulayliklar keltirmayotganligini, shuningdek ko'chma betonlar madaniy tadbirlar yakunlanganidan so'ng olib tashlanishini ma'lum qilamiz.

2024-01-04 17:11:51